

INSON VA FUQAROLARNING SIYOSIY, IJTIMOIY, MADANIY VA EKOLOGIK HUQUQLARI. FUQAROLARNING BURCHLARI

Amankulov Shamshod

**O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
“tergov faoliyati” yo'nalishining 1-bosqich talabasi**
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14217477>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada huquq va burchlar tushunchasi, ularning mohiyati va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining alohida bobida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va burchlarining belgilanishi, ularni bajarish bilan bog'liq holatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va burchlariga oid ayrim tushunchalar va ular haqida olimlarning ta'riflari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Davlat, jamiyat, konstitutsiya, fuqaro, huquq, burch, majburiyat, siyosiy huquq, ekologik huquq harbiy xizmat, muqobil xizmat, soliq, mahalliy yig'im, tarixiy-madaniy meros, atrof tabiiy muhit, madaniy huquq.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются понятия прав и обязанностей, их сущность, а также определение конституционных прав и обязанностей граждан в отдельной главе Конституции Республики Узбекистан, анализируются ситуации, связанные с их выполнением. Кроме того, анализируются некоторые понятия, касающиеся конституционных прав и обязанностей граждан, а также определения ученых по этому поводу.

Ключевые слова: Государство, общество, конституция, гражданин, право, обязанность, обязательство, политическое право, экологическое право, военная служба, альтернативная служба, налог, местный сбор, историко-культурное наследие, окружающая природная среда, культурные права.

ANNOTATION: This article examines the concepts of rights and obligations, their essence, as well as the definition of constitutional rights and duties of citizens in a separate chapter of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. It analyzes situations related to their implementation. Additionally, it explores certain concepts concerning the constitutional rights and duties of citizens, as well as definitions provided by scholars on this matter.

Keywords: State, society, constitution, citizen, right, duty, obligation, political rights, environmental rights, military service, alternative service, tax, local fee, historical and cultural heritage, natural environment, cultural rights.

Fuqarolarning huquq va burchlari — fuqarolarning Konstitutsiya va qonun hujjalarda o'z ifodasini topgan va har bir shaxsga tegishli ekanligi qat'iy belgilab qo'yilgan. Demokratik va huquqiy davlatda bu huquqlar davlat organlari tomonidan muhofaza etiladi va bajarilishi nazorat qilinadi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 2-bo'limida fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari quyidagicha turkumlanadi: Shaxsiy huquq va erkinliklar; Siyosiy huquqlar; iqtisodiy-ijtimoiy huquqlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning quyidagi burchlari ko'rsatilgan: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadrqimmatini hurmat qilishga; O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga; atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga; qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburdirlar. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish — O'zbekiston

Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar. Inson va fuqaroning huquq va erkinliklari - insonga to'la-to'kis yashash imkoniyatini beruvchi va iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy sohalarda o'z imkoniyat va talablarining amalga oshirilishini ta'minlovchi huquqiy maqom. Huquq hayotiy ehtiyojlar, kishilarning yashashi, biror joyda ishlashi, ilm egallashi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lib insonlar bilan aloqaga kirishish, davlat bilan o'zaro bog'lqlida bo'lishi va boshqalarni belgilovchi, zarur shart-sharoitlar yaratib, kerak bo'lganda cheklovchi xususiyatlarga ega bo'lgan tushunchadir. Quyida huquq tarmoqlaridan – iqtisodiy huquqlarning konstitutsiyada belgilab qo'yilgan normalari to'g'risida so'z yuritiladi.

Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosidir. O'zbekistonning har bir fuqarosiga, uning jinsi, irqi, millati, tili, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy ahvoldidan qat'i nazar, inson huquqlari va erkinliklari buzilmasligini, sud yo'li bilan himoya qilinishini kafolatlaydi. Konstitutsiya barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslangan holda, o'zgalarning huquqlariga hurmat bilan qarash tamoyillarini, o'zgalarning qonuniy manfaatlarini, huquq va erkinliklarini buzish hisobiga o'z huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishga yo'l qo'yimaslikka, ijtimoiyadolat va hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgan. O'z navbatida respublika hududida yashovchi shaxslar Konstitutsiyada ta'kidlangan huquq va erkinliklarga, xalqaro huquq me'yorlariga rioya etishi zarur. Umum e'tirof qilgan mazkur xalqaro me'yoriy manbalar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, "bola huquqlari" to'g'risida konvensiya va yana bir qator xalqaro shartnomalar orqli tartibga solinadi

"Qonun qudratli, biroq ehtiyoj yanada kuchliroq"- degan ekan Sitseron Mark Tulliy Insonlarning mulkka bo'lgan huquqlari ilk sivilizatsiya zamonlaridan shakllanib kelmoqda. Antik tarixning siyosiy arbobi hisoblangan Makiavelli o'zining "Hukmdor" asarida: "...fuqarolar ko'proq o'z huquq va erkinliklarining mavjudligi to'g'risida emas, balki o'z mulklarining daxlsizligini saqlab qolish to'g'risida qayg'uradilar. Shaxs o'z erkinligidan ayrılishga ko'nikishi mumkin, biroq mulkidan ayrılishga aslo ko'nika olmaydi", – deb yozib qoldirgan. Bu shni anglatadiki, o'sha davrlardan ham kishilar o'z mulklariga bo'lgan huquqlarini himoya qilishgan, harakat qilishgan va buni ta'minlash eng muhim huquqlardan biri hisoblangan. Mol-mulkka bo'lgan munosabatlar davlat tomonidan tartibga solingan.

Bosh Qomusimiz –O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-bobi fuqarolarning "Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar" deb nomlanadi.

Konstitutsianing 41-moddasida har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisob varaqlarining sir tutilishi, shuningdek, meros huquqi qonun bilan kafolatlanishi mustahkamlangan.

"Meros –vorislarga qoladigan yoki qolgan mulk". Shuningdek, bu moddada meros qoldirish huquqi ham qonun bilan kafolatlab qo'yilgan. Shaxs o'z mol-mulkini o'z xohishi bilan kimadir meros qilib qoldirishi mumkin. U mulk huquqi, aqliy faoliyat – ixtiro, kashfiyat, mualliflik natijalariga bo'lgan huquqlar hamda bu huquqlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni ham o'z ichiga oladi.

Barcha insonlar o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida mehnat qiladilar va bu qilgan mehnatlari uchun haq oladilar. Bu orqali yashashadi, harakat qilishadi, jamiyat bilan bog'lanishadi. Biroq hamma ham qonunlarga rioya qilib, ular bergen erkinlikda ishlamaydi. Bu esa huquqbazarlik, jinoyatchilikka olib keladi. Kishilar bilib-bilmay noqonuniy harakatlar

qilmasligi uchun qonunlar bilan tanish bo'lib, huquq va burchlarini bilishlari lozim. Aynan quyida keltiriladigan Konstitusiyaviy norma shu masalalarni tartibga soladi. 42-modda: "Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lмаган tarzda adolatli haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi".

Etibor beradigan bo'lsak xotin-qizlar mehnati bo'yicha muhim qoidalar berilgan va bu kafolatlar Mehnat kodeksida yanada kengaytirilgan. Uning asosiy tamoyillaridan biri –mehnat huquqining gender jihatdan tengligini ta'minlash. Qonunlarda keltirilgan kafolatlarga qaramay, ayrim mansabdor shaxslar turli baholar –ularning homiladorligi yoki kichik yoshdag'i farzandi borligini sabab qilib, ularni ishga qabul qilishdan bosh tortishadi yoki ularning ish haqini kamaytirishadi. Bunday holatlar g'ayriqonuniy deb topilib, javobgarlikka tortishga asos bo'ladi. Qonunchilikda belgilangan bu normalar amalda ishlab, hayotimizning bir qismiga aylanishi kerak.

Konstitutsianing 44-moddasida shunday yoziladi: "Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi. Bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi". Bu normada bolalarning iqtisodiy ekspluatatsiyasi bekor qilinib, ularga zarar yetkazadigan har qanday ishni bajarishdan himoyalanish huquqi mujassamlashgan. Bundan tashqari Xalqaro Mehnat Tashkiloti 2002-yilda 12-iyun sanasini "Jahon bolalar mehnati ekspluatatsiyasiga qarshi kurash kuni" deb e'lon qilgan. U jamoat e'tiborini quyidagi muammolarga qaratadi: qullik, majburiy mehnat, giyohvand moddalar savdosiga, qurolli to'qnashuvlarda qatnashish. Bugungi kunda muammolar to'lig'icha bartaraf qilina olmagan. Buning uchun har bir bolaning huquqlarini ro'yobga chiqarish maqsadida harakatni kuchaytirib, ularning ta'limi, sog'lig'i, rivojlanishi uchun qayg'urib, birlashmoq zarur.

Iqtisodiy huquqlar shaxs uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki ular kishilarning harakati, shaxsiy hayoti, iqtisodiy taqdirini nazorat qilish, yashash –hayot uchun zarur bo'lgan ne'mat, ehtiyojlarini moddiy jihatdan qondirish erkinligini beradi. Daromadlar tengligi, ishsizlikdan himoyalanish, bandlik, kredit olish uchun barchaga teng imkoniyatlar yaratib, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga imkon beradi. Bular iqtisodiy huquqlarning asosiy tamoyillaridir.

Siyosiy huquqlar shaxslarning davlat va jamiyat hayotida erkin ishtirok etishiga sharoit yaratib beradi. Bunga saylovlarda ishtirok etish, ya'ni, ovoz berish va davlat lavozimlarini egallash, yig'ilishlar, namoyishlar, mitinglar o'tkazish huquqi, uyushmalar tuzish huquqi va boshqalar kiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar insonning yashash sharoitlarini, o'z qobiliyatlaridan foydalanishini, insonning kamchiliklarini bartaraf qilishga qaratilgan va jamiyatdagi iqtisodiy aloqalarini, shuningdek uning ijtimoiy himoyalanganligini ta'minlaydi.

Madaniy huquqlar insonning konstitutsiya yoki qonun bilan kafolatlangan va insonning madaniy hamda ilmiy sohada o'zini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratadigan inson

huquqlari va erkinliklarining muhim guruhi hisoblanadi. Bu huquqlarni Konstitutsiyaning 53-moddasida ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanishi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi va davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qilishi haqida yozilgan.

Yangilangan tahrirdagi Konstitutsiyada boshqa huquqlar bilan bir qatorda ekologik huquqlarga ham e'tibor qaratildi. Misol uchun 49-moddada; "Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi"-deb qo'yilgan. Bundan aholini kundan-kunga yomonlashib borayotgan ekologiyadan kelib chiqayotgan xavflarning oldini olish va toza atrof-muhitda yashash huquqini berayotganligini ko'rishimiz numkin.

Xulosa qilib aytkanda huquq va burch fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Bu huquq va burchlar faqat aholi manfaatlari uchunligi yaqqol ko'rinib turibdi. Shuning uchun xalqning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishga harakat qilishimiz lozim. Zero, "Qonunni yaxshi bilgan odamning do'sti –qonun".

References:

1. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. FUQAROLARNING HUQUQ VA BURCHLARI Abrurahmonova Nodira Xusnuddinova Ilmiy rahbar Safaraliyeva Shahrizoda Toshkent tibbiyot akademiyasi sog'liqni saqlash menejmenti fakulteti 2-bosqich talabasi
3. IQTISODIY HUQUQLARNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSIOqmamatova Shaxribonu ZafarjonovnaJahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" fakulteti 1-kurs talabasi